
BUGUNNING QAHRAMONI “OSHIQLAR TUMORI”DA

Hasanova Xayixon FazlidinxonovnaO‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada shoira Guljamol Asqarovaning “Oshiqlik tumorı”da she’riy to‘plamidagi she’rlar va to‘plamdan joy olgan “Bugunning qahramoni” haqida yozilgan she’rning badiiy tahlili haqida, shuningdek, bugunning qahramoni, nafaqat mashhur insonlar, balki har birimiz qahramon ekanligimiz haqida badiiy-falsafiy fikr-mushohada yuritilgani haqida tahlil hamda bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: She’r, she’riy to‘plam, xalq, xaloyiq, vatan, bugunning qahramoni, zamondosh, ona, oddiylik, oddiy odamlar.

Guljamol Asqarovaning “Oshiqlar tumorı” she’riy to‘plami 2012-yil G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyida nashr etilgan. To‘plamda quyidagi sh’erlar jamlangan:

“Shukuh”, “Nafis alanga”, “Sog‘inch”, “Ozod qush”, “Taskin”, “Mendek”, “G‘am uyi”, “Nur”, “Ilk bora”, “Begona sevgi”, “Ojizlik”, “Asrab qol”, “Meni...”, “Oqqush”, “Bizning sevgi”, “Rahmat...”, “Qarg‘algan sevgi”, “Ma’sum gunoh”, “Ovozsiz odam”, “Hayot va o‘lim”, “Sevgilimga alla”, “Mehrga zorlik”, “Mehr ko‘rgaz”, “Ketamiz”, “Mensiz ham”, “Vido”, “Iltimos”, “Unutma”, “Aql davri”, “Noma”, “Xavotir”, “Bunchalar...”, “Holat suvratlari”, “Juda yaxshi...”, “Mehr nima?”, “Seni...”, “Majnunning boshi”, “So‘z va so‘zsizlik haqida So‘z”, “Afsus”, “Sochilib yotgan hislar”, “Balki unutishing...”, “Men juda...”, “SMSlar”, “Meni seving...”, “O‘zimda xato”, “Layli ruhi...”, “Ey dilbarim...”, “Ey gulparim...”, “Ey dilbari...”, “Bir ko‘rdim-u”, “Marhabo ey...”, “Rayhon islim”, “Sen haqingda so‘nggi she’rlar”, “Vido”, “Sening isming”, “O‘tinch”, “Uzoq yo‘llar...”, “Bahorgi maktub”, “Sovuq kunlar”, “Sovuq kunlar”, “Ket gvatning...”, “Ortimdan...”, “Otamning”, “Pastlar”, “Shoirlarning uyi”, “Borardim”, “Taqdir...”, “Ko‘zing...”, “Buxoriy minorga arznama”, “Takbir”, “Agarda”, “Qushcha”, “Bir paytlar...bugun”, “Bugunning qahramoni”, “Shoir”, “Shoirning gunohi”, “Zamonaviy she’r”, “O‘zimga nasihat”, “Yangi yil tabrigi”, “Opajonim...”, “Samimiyy to‘yxat”, “Paxtakor ayollar madhi”, “Shoir va bankir”, “O‘zbekning shoni”, “Bedilona”, “Lekin”, “Tug‘ilish”, “Onam”, “Savol”, “O‘z yo‘lini o‘zi topgan odam”, “Umr” va “Men” nomli she’rlari.

To‘plam “Shukuh” she’ri bilan boshlanib, “Men” she’ri bilan yakunlangan. To‘plamidagi she’rlar bilan tanishar ekanmiz, bir necha mavzudagi rang-baranglikni, shuningdek, so‘z, ona, mehr, sevgi, muhabbat va “men”lik kabi ijtimoiy-falsafiy fikr-mulohazalar badiiy tasvirilar orqali mahorat bilan tasvirlangan.

Shoiraning to‘plamdan joy olgan “Bugunning qahramoni” she’ri 2011-yilda to‘rtlik shaklda yozilgan va o‘n to‘rtlikdan iborat. Asar uchun “Ishqdagi ishq mojarosi” filmidan quyidagi epigraf keltirilgan:

Shoshilgan xaloyiq ko‘rmas hech zamon,
Haqiqiy qahramon ko‘zdan sal chetroq.

Xaloyiq, xalq, odamlarning har biri o‘zining maishiy o‘y-tashvishlari bilan har doim tinimsiz harakatda bo‘lganligi (tirikchilik, yuksalish, davolanish, ilm olish, ekkan hosilini yaxshi olishi, yillik daromadi hisobi va shu kabi) sababli jamiyatda sodir bo‘layotgan voqeahodisalarning barchasidan xabardor bo‘la olmaydi. Bundan tashqari o‘zi istasa-da, to‘sinqinlik qiluvchi omillar ham mavjud ekanligi va bu o‘z o‘rnida davr qahramoni, o‘rnak bo‘luvchisi

bormi, yo'qmi bu haqida o'ylab o'tirmaydi. Haqiqiy qahramon esa ko'zdan narida bor ekanligi haqida ishora qiladi. Oshkoralik vaqt esa qahramonni namoyon qiladi...

She'rning tahliliga nazar tashlaydigan bo'lsak, birinchi to'rtlikda,
Kimdir qirq jonini asrab yashaydi,
Kimdir bo'lib yashar yolg'iz jonini.
Zamondoshlar ichra, vaqlar osha,
Izlaymiz bugunning qahramonini.

Maishiy hayot girdobidagi insonlar, qay tarzda yashamasin, biz, ham bugunning qahramoni bormi deya, atrofga o'y bilan qaraymiz... Bashariyatda zamondoshlar uchun o'rnak bo'lguvchi kim bo'lmoqda...

Qahramon kim o'zi, u qanday odam,
Uning xayolida yashaydi nelar?
Ehtimol qo'lini ketmon qabartgan,
Ehtimol qo'llarin o'pgandir gullar.

Atrofimizdag'i dehqon, usta-hunarmand, bog'bon, novvoy, quruvchi kabi jismoniy mehnat fidoiylarining qadoq qo'llaridagi mehnat, peshonasiga hayot solgan izlarni, ularning yashash tarzi, hayotdagi tiriklikni saqlash, asl hosila qanday bo'lishi haqidagi yondashuvlaridan xulosa olib, ularning bugunning qahramoniga qiyoslasak mubolag'a bo'lmaydi.

Masalan, bir dehqon yerga qadagan urug'larga beradigan e'tibori va ulardan oladigan hosili ortida bir oilaning ijtimoiy ehtiyojini qondiruvchi ayirboshlash vositasi, xalqning ne'matlar bilan ta'minotida katta xizmatlari mavjud ekanligini ko'rish mumkin.

Ehtimol bugunning qahramonidir,
Kimki sha'n saflarga bo'lib yursa bosh.
Balki qahramondir, jimgina yashab,
O'z yurtin jonidan sevgan **zamondosh**.

Yurtni Onaga qiyos etib, uning ravnaqi uchun kamarbasta bo'lgan yoshlar, ilmning o'zgalar qo'lida xor bo'lmasligi uchun shogirdlar tarbiyalayotgan jamiyatdagi "ustoz-shogird"lik tizimini izdan chiqarmaslik uchun xizmat qilayotgan o'qituvchilarni ham bugunning qahramoni deya olamiz. Chunki, ular bilim berish jarayonida fidoyilik hissining ustunligidan tarbiya berishga, komil inson fazilatlarining afzalliklarini va bu jamiyat uchun faravon, sog'lom hayot turmush tarzi haqida ham mulohazalar yuritib, faoliyat olib borishadi, tajriba-tadqiqotlardan kelib chiqqan xulosalar bilan o'rtoqlashishadi, metodik qo'llanmalar yozib, amaliyotga tatbiq etishadi.

Balki qahramondir, sham kabi so'nib,
Farzandlar yo'liga yoqib yorug' sham.
Mendek davralarning gulini tugib,
O'zin hech davraga urmagan **onam**.

Boylik ilinjida yashamasdan u,
Mahliyo bo'lmay o'z koshonasiga.
Dalalar bag'riga ariqlar tortib,
Ajinlar tortgandir peshonasiga.

She'rning to'rtinchi va beshinchi to'rtliklarida bugunning qahramoni – Ona ekanligiga ishora bor. Darhaqiqat, onalik mas'uliyati, farzandlar uchun fido bo'lishdir. Ularning oyoqqa turishi, nutqining shakllanishi, sog'lom rivojlanishi, jamiyatda o'z o'rnnini topishi uchun ruhlantiruvchi ulkan kuch – daldadir. Misralardagi onaning yuzidagi ajinlar shu qadar ta'sirlikni, o'ziga xos mahorat bilan o'xshatilganki, go'yoki, keng daladagi ariq tortilgan egatlarga

o‘xhatilgan. Hech bir ona yo‘qki, farzandi yo‘lini topgunga qadar befarq tura olmas, qay bir uslubni qo‘llasa-da, farzandiga turki berishni, rivojlanishini, nimadir anglab yetishini istaydi. Onalik mehri har qanday vaziyatni ushlab tura oladigan rishtalardan biridir.

Balki shu **dehqondir** bugunning mardi,

Joni hech tinmadi rizq-ro‘z ularshib.

U bag‘ir qoni-la yerni sug‘ordi,

Kimlardir yurganda yurtni pullashib.

Keyingi misralarda dehqon ham bugunning qahramoni ekanligi, vataniga – urug‘ qadagan zaminiga mehrining toblanishi, bor mehnati bilan shaxdam qadamlar bilan kirib borishi, dala-maydonlarini butun bag‘riga sig‘dirishi, undirgan hosilida peshonasining terlarini his etib turishi, faxri, oilasining ta’minotida halol mehnati yotganligi faxri bilan yashashi yurtini pullayotganlarga nisbatan ulug‘vorligini, haqiqatda bugunning qahramoni ekanligini badiiy tasvirlagan.

Qahramon mehrini minnat qilmaydi,

Men demas o‘z-o‘zin ko‘ksiga urib.

Haqiqiy qahramon mag‘rur yashaydi,

Xalqining g‘amida sochi oqarib.

Buyuklar qahramon ekani aniq,

Yozilgay o‘tmishga bu go‘zal damlar.

Hatto qahramondir bu aziz yurtda,

Oddiy yashayotgan **oddiy odamlar!**

Yettinchi, sakkizinch to‘rtliklarda bugungi kunda baxtli, mag‘rur, viqor bilan yashayotgan oddiy odamlar bugunning qahramoni ekanligini ta’kidlagan. Oddiylik, kamtarinlik asosida qanoatda yashayotgan insonlar haqida, shuningdek, o‘ziga ustoz bilgan yaqinlarining hayotiga, yashash tarziga, o‘rnak bo‘lishiga, baxtli bo‘lish uchun ham insonda qalb xotirjamligining ahamiyati yuqori ekanligiga ishorani ko‘ramiz.

Xaloyiq qaygadir borar shoshilib,

Bir chetda ularni kuzataman jim.

Vatan! Xalq! deganda yuksalar faqat,

Bozor-o‘charlardan charchagan ruhim.

Do‘stim, hech shart emas bahslar, nizolar,

Bor axir chin so‘zni aytmoqqa haqqim.

Haqiqiy qahramon erur aslida,

Qahramonlar tuqqan shu aziz xalqim!

Shoira, keyingi to‘rtliklarda xaloyiq, odamlarga ba’zan hayot o‘zanidan o‘zini bir chetga olib kuzatganda, odamlarni maishiy hayot o‘z doimiga tortayotganini, chuqur o‘y-mulohazalarga tolishini, davralarda, tashkil etilgan tadbirarda “Vatan”, “Xalq” degan so‘zlardan ruhining tetiklashishi, yuksalishi haqida yozadi. Ya’ni, tinchlik o‘zi bir ne’matligi, vatanning borligi, unda halovat bilan yashash, vatan–xalq so‘zleri doimiy yonma-yon turishi, ularni bir-birisiz mavjud bo‘la olmasligi haqida she’riy satrlarda badiiy ifodalagan. Bugunning qahramoni haqida jamiyatdagi insonlarning mavqeyi, darajasi, ijtimoiy, siyosiy va boshqa jihatlaridan qat’iy nazar bugunning qahramoni bu har bir inson bo‘lishiga ham alohida urg‘u beradi.

Guljamol Asqarovaning “Bugunning qahramoni” she’rini mutolaa qilish, tahlil qilish, shoiraning qo‘llagan so‘zleri, badiiy tasvirlash vositalari va uslublari orqali har bir kitobxon,

o‘qiguvchi, mutaxassisni teran fikrlashga, mushohadaga, jamiyatga o‘zgacha xolis nazar bilan boqishga chorlaydi.

Foydalaniman adabiyot va manbalar ro‘yxati:

1. Asqarova G. “Oshiqlar tumori”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/guljamol-asqarova-sherlar.html>
3. [www.ziyouz.com kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi)